

**Sherali KARIMOV,**

Farg'onha davlat universiteti, tayanch doktoranti

E-mail: sheralikarimov700@gmail.com

**Alisher XAITBAEV,**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori

E-mail: polyphenol-10@yandex.ru

O'zbekiston Milliy universiteti professori M.A.Mahkamov taqrizi asosida

## LEPTINOTARSA DECEMLINAETADAN OLINGAN XITOZANNI DEATSETLLANISH DARJASINI ANIQLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada Leptinotarsa decemlinaeataдан ajratib olingan xitozan bioopolimerining deatsetillanish darjasini patensiometrik titrlash va element analiz usuli yordamida aniqlash to'g'risida fikr yuritilgan va olingan natijalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Xitozan, Leptinotarsa decemlinaeata, deatsetillanish darjasasi, patensiometrik titrlash, element analiz.

## ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЯ ДЕАЦЕТИЛИРОВАНИЯ ХИТОЗАНА LEPTINOTARSA DECEMLINAEATA

Аннотация

В данной статье обсуждается определение степени деацетилирования биополимера хитозана, выделенного из Leptinotarsa decemlinaeata методом потенциометрического титрования и элементного анализа, и представлены полученные данные.

**Ключевые слова:** Хитозан, Leptinotarsa decemlinaeata, степень деацетилирования, потенциометрическое титрование, элементный анализ.

## DETERMINATION OF THE LEVEL OF DEACETYLYATION OF CHITOSAN FROM LEPTINOTARSA DECEMLINAEATA

Annotation

In this article, the determination of the degree of deacetylation of chitosan biopolymer isolated from Leptinotarsa decemlinaeata by potentiometric titration and elemental analysis method is discussed and the obtained feces are presented.

**Key words:** Chitosan, Leptinotarsa decemlinaeata, degree of deacetylation, potentiometric titration, elemental analysis.

**Kirish.** Xitin va xitozan moddalari ko'pchilik boshqa uglerod hamda azot elementlarini o'z ichiga olgan birikmalar singari, ushbu elementlarning tabiatdagi global sikllarida ishtirot etadi. Xitin tabiatda uchta asosiy manbaga ega bo'lib, bular: qisqichbaqsimonlar qobig'i, hasharotlar kutikulasiga va mitselial zamburug'larning hujayra devori hisoblanadi. U, ko'pchilik hayvonlarning qurilish materiali bo'lib, asosan qo'llab-quvvatlovchi funksiyani bajaradi. Odatda boshqa moddar bilan birlgilikda uchraydi va tabiatda tarqalishi jixatidan biopolimerlar qatorida sellyulozadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi[1].

Xitin manbaalari tabiatda juda ko'p va xilma-xil bo'lishiga qaramay eng asosiysi go'shti uchun ovlanadigan qisqichbaqsimonlar bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib sanoat miqiyosida xitin va xitozan ishlab chiqarish bilan ochiq dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqa oladigan davlatlar shug'ullanishi tabiiy xoldir.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, xitining bizda mavjud bo'lgan eng asosiy manbaasi bo'lib hasharotlar hisoblanib, ularda prokutikulaning 25-60% biokimyoiy asosini xitin moddasi tashkil etadi[1].


Hasharotlardan Bargxo'r qo'ng'izlar (*Chrysomelidae*) oilasiga mansub Kolorado qo'ng'izi (*Leptinotarsa decemlinaeata*) asosan kartoshka barglari va poysasi bilan oziqlanadi. Tana qoplami va o'lchami nisbatan yirik (uzunligi 10 mm va kengligi taxminan 5 mm), yashovchanligi va reproduksiyasi yuqori[2].



1-rasm. *Leptinotarsa decemlinaeata*

Tadqiqotimiz davomida ushbu xom ashyordan xitozan moddасини klassik usuldan foydalанib ajratib oldik.

Xitozan chiziqli geteropolisaxarid bo'lib, asosan  $\beta$ -(1 $\rightarrow$ 4)-glikozid bog'i bilan bog'langan 2-amino-2-deoksi- $\beta$ -D-glyukopiranoya qoldiqlari birliliklaridan tuzilgan. Bazi birliliklar 2-asetamido-2-deoksi- $\beta$ -D-glukopiranoya qoldiqlalaridan iborat[3;10].



2-rasm. Xitozan biopolimerining kimyoiy tuzilishi.

Analizyotda xitozandan foydalananida uning muhim parametrlaridan biri bo'lib deatsetillanish darjasasi (DDA) hisoblanadi. DDA bir qator spektroskopik (IQ, UB,  $^1\text{H}$  YaMR) va analitik (potensiometrik va konduktometrik titrlash, element analiz kabi) usullar yordamida aniqlanadi [4].

Keng tarqalgan va qulay usullardan biri bo'lib potensiometrik titplash usuli hisoblanadi. Ushbu usulda neytrallash, cho'kma va kompleks hosil qilish, oksidlanish-qaytarilish va boshqa usullar yordamida ekvivalent nuqta aniqlanadi. Bunda xitozan suyultirilgan HCl eritmasida eritiladi va NaOH ning aniq konsentratsiyadagi eritmasi bilan titrlanadi. Jarayonda doimiy ravishda eritmaning muhiti o'zgarishi (pH) qayd etib boriladi. Sarflangan ishqorning hajmi va eritma pH qiymati asosida grafik tuziladi. Grafikda hosil bo'lgan egrilardan biri ortiqcha qo'shilgan HCl ni, yana biri esa xitozan melekulasidagi erkin aminoguruqlarga birikkan HCl ni neytrallanishidan hosil bo'ldi. Ayni ikki egri chiziq orasidagi farqdan foydalanih xitozandagi erkin aminoguruqlar miqdori aniqlanadi hamda deatsetillanish darajasini topiladi(1-formula)[5;6]:

$$DDA = \frac{m * 203}{G - 42 * m} * 100$$

bu yerda, 42-xitin va xitozan elementar zvenosi molekulyar massalari orasidagi farq; G—eritilgan xitozan massasi (gr);

$$V = V_2 - V_1$$

$$m = V * T,$$

bu yerda, V—sarflangan NaOH eritmasining hajmi (ml); T—NaOH eritmasining titri (mol/ml)

$$T = \frac{A}{B}$$

Xitozanni deatsetillanish darajasini aniqlashda nisbatan tezkor bo'lgan element analiz usuli ham qo'llaniladi. Buning uchun ma'lum miqdordagi xitozan qizdiriladi hamda massaning o'zgarib borishi asosida undagi uglerod va azot miqdori topiladi. Topilgan miqdorlardan foydalanih deatsetillanish darajasini aniqlash uchun C/N nisbati olinadi. Ma'lumki xitozanda azotning miqdori 8,7% ni, xitinda esa 6,9% ni tashkil etadi. Element analiz usulida xitozanning deatsetillanish darajasini topishda quyidagi formuladan foydalilanadi(2-formula)[7;8;9]:

$$DD = \left( 1 - \frac{C/N - 5,145}{6,816 - 5,145} \right) * 100$$


bu yerda, 5,145 to'liq N-deatsetillangan xitozandagi ( $C_6H_{11}O_4N$  takrorlanuvchi qism) C/N nisbati; 6,816 to'liq N-atsillangan xitindagi ( $C_8H_{13}O_5N$  takrorlanuvchi qism) C/N nisbati.

Yuqorida usul biroz boshqa shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Unga ko'ra tekshirilayotgan xitozanning ma'lum miqdori  $550-600^{\circ}\text{C}$  da yoqiladi va organik fraksiyadagi azotning foiz miqdori hisoblanadi. Deatsetillanish darajasini quyidagi formula bilan topiladi(3-formula)[7]:

$$DD(\%) = [(8,695-N) / 1,799] * 100$$


bu yerda, 8,695-to'liq deatsetillangan xitozandagi N foizi; 1,799-xitin va xitozandagi azotning foiz miqdorlari orasidagi farq; N (%)-organik fraksiyadan hisoblangan azot foizi.

**Olingan natijalar va ularning taxlili.** Dastlab, ma'lum miqdordagi xitozan xlorid kislotaning suyultirilgan eritmasida eritib olindi va ushbu erima NaOH eritmasi bilan patensiometrik usul yordamida titrlandi.




3-rasm. Eritmalarni titplash diagrammasi.

Quyida xitozanning potensiometrik titplash egrilari keltirilgan:



4-rasm. HCl eritmasini NaOH eritmasi bilan titplash egrisi.



5-rasm. Leptinotarsa decemlineata xitozanini NaOH eritmasi bilan titplash egrisi.

Deatsetillanish darjasini deatsetillash vaqtiga bog'liq holda o'zgaradi. Jarayon vaqtining ortishi DDA ning ham ortishiga sabab bo'ldi. Aniqlangan va hisoblangan qiymatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

**I-Jadval**

*Deatsetillanish darjasini deatsetillash vaqtiga bog'liqligi*

Eritilgan xitozan massasi (gr)	Sarflangan ishqor hajmi (ml)	Ishqorning titri (mol/ml)	Sarflangan ishqorning miqdori (mol)	Deatsetillash vaqt (soat)	Deatsetillanish darjasasi (%)
0,2	28,93	0,0000311	0,000899	2	76,8
	31,06		0,000965	3	81,4
	34,51		0,001073	4	88,9
	34,62		0,001117	5	89,1

Tekshirilayotgan xitozan na'munasi element analiz qilinganda tarkibida 7,14% azot mavjudligi aniqlandi. Shunga asosan 2-formula yordamida uning deatsetillanish darjasini hisoblab chiqildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

*Xitozan tarkibidagi uglerod, azot va vodorodning foiz miqdorlari*

Na'muna	Deatsetillangan vaqtি	C %	N %	H %	C/N	DDA (%)
Xitozan	5 soat	38,35%	7,14%	7,81%	5,37	86,3

2-jadvaldagi azotning foiz miqdoridan foydalaniб xitozanning deatsetillanish darajasi 3-formula asosida hisoblanganda ham 86,3% ni tashkil etishini ko'rish mumkin.

**Xulosa.** *Leptinotarsa decemlineata*dan klassik usul yordamida ajratib olingen xitin moddasini yuqori konsentratsiyali ishqor eritmasi bilan deatsetillab olingen xitozanni DDA qiyamatlari element analiz hamda patensiometrik titrlash usullaridan foydalaniб topildi hamda ushbu qiyamatlar o'zaro taqqoslandi. Deatsetillanish darajasining qiymati va deatsetillash vaqtি orasidagi munosabat o'rganilganda ularni proporsional tarzda o'zgarib borishi aniqlandi.

**ADABIYOTLAR**

1. В.П.Варламов, А.В.Ильина, Б.Ц.Шагдарова, А.П.Луньков, И.С. Мысякина. Хитин/хитозан и его производные: фундаментальные и прикладные аспекты. Успехи биологической химии, т. 60, 2020, 317-368 с.
2. A.Xudoqulov, N.Irgasheva, S.Ubaydullayev, A.Norqulov,. O'simliklarni zararli organizmlardan uyg'unlashgan himoyalash. O'quv qo'llanma. "Fan ziyosi" Toshkent-2021. 48-51b.
3. Каримов Ш.Х., Хабибулаева Н.Ф., Хайтбаев А.Х. Leptinotarsa decemlineata(Say) таркибидан хитозан ажратиб олиш. ФарДУ илмий хабарлар. 2021.6/5.С. 36-41 б.
4. K.D.I. Dimzon, T.P. Knepper. Degree of deacetylation of chitosan by infrared spectroscopy and partial least squares // International Journal of Biological Macromolecules. 2015. Volume 72, – pp. 939–945.
5. Y. Zhang, X. Zhang, R. Dinga, J. Zhang & J. Liub. Determination of the degree of deacetylation of chitosan by potentiometric titration preceded by enzymatic pretreatment // Carbohydrate Polymers. 2011. Volume 83, – pp. 813–817.
6. N. Balbzs & P. Sipos. Limitations of pH-potentiometric titration for the determination of the degree of deacetylation of chitosan // Carbohydrate Research. 2007. Volume 342, – pp. 124–130.
7. Abdulkarim, M.T. Isa, S. Abdulsalam, A.J. Muhammad, A.O. Ameh. Extraction and characterisation of chitin and chitosan from mussel Shell // Civil and Environmental Research. 2013. Volume 3, Issue 2, – pp. 108–114.
8. M.R. Kasaai, J. Arul, G. Charlet. Intrinsic Viscosity–Molecular Weight Relationship for Chitosan // Journal of Polymer Science: Part B: Polymer Physics. 2000. Volume 38, – pp. 2591–2598.
9. Z.M. dos Santos, A.L.P.F. Caroni, M.R. Pereira, D.R. da Silva, J.L.C. Fonseca. Determination of deacetylation degree of chitosan: a comparison between conductometric titration and CHN elemental analysis // Carbohydrate Research. 2009. Volume 344, – pp. 2591–2595.
10. Sh.Karimov, A.Xaitbayev. Xitozan ajratib olish usullarini optimallash. FarDU ilmiy xabarlar. 2022-yil 6-son. 472-475 b.